

TIL VA MADANIYAT

Narzullayeva Dilfuza Bafoyevna

Buxoro davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti,
Fransuz filologiyasi kafedrasи o‘qituvchisi

Narzulloyeva Nilufar Nazirjon qizi

Buxoro davlat universiteti,
Xorijiy tillar fakulteti, 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Dunyodagi barcha tillar ma’lum bir taraqqiyot bosqichlarini bosib o’tadi. Ushbu maqola jahon tilshunosligida til va nutqning o’rni, ahamiyati, ularning o’ziga xos funksiyalari haqida bo‘lib, maqolada turli olimlarning til va nutq haqidagi qarashlari, fikrlari bilan tanishishingiz, til va nutqning bir-biriga xos bo‘lgan mavhum-konkret tarzdagi korrelyat nisbiy mustaqil birliklarini ko‘rib chiqishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: til, nutq, so‘z, fonema, morfema, leksema, konstruksiya, umumiylilik, xususiylik, belgi, ma’no.

KIRISH

Bizning dunyomizda juda ko‘p madaniyatlar va xalqlar mavjud. Umumiy insoniyat tsivilizatsiyasining shakllanishi jarayonida turli jamoalardan bo‘lgan odamlar bir-biri bilan doimiy aloqada bo‘lib, madaniy va savdo aloqalarini o’rnatdilar. Umuman olganda, madaniyatlararo muloqot shunday paydo bo‘lgan.

Dunyodagi barcha tillar ma’lum bir taraqqiyot bosqichlarini bosib o’tadi. Uning rivojlanishi jamiyat bilan, tafakkur va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Insonning tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo‘ladi. Til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari haqida gap ketganda antropologik tilshunoslik va lingvokulturologiyaga e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi.

“Til va madaniyat” masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga madaniyat tarixchisi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Biroq masalaning tilshunoslikka oid tomoni ikki jihatlidir, chunki til va madaniyat o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ikkita savol tug‘iladi:

- 1) turli madaniy jarayonlar tilga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- 2) madaniyatga til qanday ta’sir qiladi?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi [1], degan fikri tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda. I.Gerder inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'lagan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi, deb e'tirof etadi [2]. Til va madaniyatning o'zaro munosabati Vilgelm fon Gumboldtning "Odam tillarining tuzilishini farqlanishi va uning odam zotini ma'naviy rivojlanishiga ta'siri" nomli asarida bat afsil yoritilgan [3]. Olimning turli tillar o'z mohiyatlari, bilish va sezishga ta'sir ko'rsatishlari bo'yicha turli dunyoqarashni tashkil etishi hamda til xususiyatlarining millat mohiyatiga ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrlari keng tarqala boshladi. Olimning ta'limotida quyidagi g'oyalar o'z ifodasini topdi:

- 1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi;
- 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda dunyoni o'ziga xos ko'rish vositasi bilan ifodalanadi; tilga har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan ichki shakl xosdir;
- 3) tilning ichki shakli – "xalq ruhi" va uning madaniyatining ifodasi;
- 4) til inson va uning o'rabi olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi.

Gumboldt g'oyalari XIX-XX asrlarda neogumboldtianlik (tilshunoslikda Gumboldt bilan bog'liq yangi davr) doirasida rivojlantirildi. Xususan, XIX asrda Rossiyada A.A.Potebnya , uning "tilni faoliyat sifatida"gi g'oyasini rivojlantirdi[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilshunoslarning hech biri "til va madaniyat" masalalari bilan amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos E.Sepirchalik (1884-1939) ko'p va samarali shug'ullanmagan, deyish mumkin. E.Sepirning "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlari"da "til va madaniyat" masalalariga doir qator savollar yoritilgan.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi g'oyasi tilshunoslik va til falsafasi tarixida katta o'rin egallaydi. Bu borada, Vilgelm fon Gumboldt (1767–1835) garchi til hamma odamlar uchun universal bo'lsa-da, dunyo tillari bir-biridan farq qiladi va har bir tilda dunyoqarash mavjud degan g'oyani ilgari suradi. Gumboldt uchun odamlarga (millat, irq) aqliy qobiliyatlar berilgan va ba'zi tillar va madaniyatlar ushbu aqliy qobiliyatlarning ishlariiga asoslangan ijoddir.

Shunday qilib, tillar va madaniyatlar “millat ruhini” ifodalaydi, va lingvistik va madaniy xilma-xillik turli xalqlarning (millatlar, irqlar) aqliy qobiliyatlaridagi farqlarni aks ettiradi.

Sapir, garchi tilning tipologik xususiyatlari (ya’ni tarkibiy xususiyatlari) madaniyatning o‘ziga xos turlari bilan o‘zarbo‘lgan bo‘lmasa-da, tilning so‘z boyligi madaniyatning xususiyatlari va uning ma’ruzachilari tarixini aks ettiradi.

Vorf, o‘z navbatida, yana oldinga bordi va tillar o‘rtasidagi tarkibiy farqlarni har xil fikrlash turlari mavjudligining dalili sifatida va har qanday ma’lum bir madaniyatni tushunish uchun kalit sifatida ko‘rish mumkin, deb ta’kidladi.. Odamlarning fikrlash uslubi ular gapiradigan tillar bilan shartlangan (agar aniqlanmagan bo‘lsa) deb taxmin qiladigan lingvistik nisbiylik printsipi odatda Sapir-Vorf gipotezasi deb nomlanadi. Shu nuqtai nazardan, til har qanday muayyan madaniyatni anglashning kalitidir.[5]

Ushbu fikr yo‘nalishi tilning ta’siri va qudrati va uning madaniy va etnik guruhlar a’zolari uchun ahamiyatini ta’kidlasa-da, tilni ham, madaniyatni ham mohiyatan izohlaydi. Ya’ni, til va madaniyatga monolit birlik sifatida qaraladi, ularning birligi va bir xilligi uchun muammo tug‘dirmaydi.

Til (lar) va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq anglash zarurati ko‘plab zamonaviy jamiyatlarda lingvistik, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikning kuchayishi bilan bog‘liq.

Til va madaniyatning o‘zarbo‘lgan munosabatini uzoq yillar davomida o‘rganish va tahlil qilish natijasida umumiyligini tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa kabi fanlarning yangidan-yangi qirralari ochildi hamda ular lingvomadaniyatshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, sosiolingvistika, psixolingvistika, mentalingvistika, kognitiv lingvistika, interlingvistika (bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish) sinxron va diaxron lingvistika, makro va mikrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi zamonaviy fanlarning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lmoqda, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borishga zamin yaratmoqda. Til va madaniyatning bir-biriga munosabatini tavsiflash jarayoni haqida turli xil fikrmulohazalarga duch kelish tabiiy, chunki bu ikki tushunchaning o‘zarbo‘lgan munosabati keng qamrovli va bir necha yillar davomida olimlarning diqqati markazidan o‘rin olib kelmoqda.

XULOSA

Avvalgi va hozirgi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, til va madaniyat ikkisi bir butunlikni tashkil etadi. Ular o‘zarbo‘lgan bir-birini taqazo etadi, shuningdek, bir-birini to‘ldirib keladi. O‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri,

ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy: "Har bir millatning o'zligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur", - deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat til-millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchasmasidir.

Xulosa qilib aytganda, til tafakkur, jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog'liq. Har bir jamiyatning, uning har bir a'zosi tafakkuri va madaniyatida til namoyon bo'ladi. Vaholanki, har bir jamiyatning tilida uning madaniyati va mentaliteti aks etadi. Tilni lingvokulturologik tadqiq etishda etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Til sohibining etnik, psixologik va madaniy xususiyatlarini, uning ijtimoiy va kasbiy statuslari til taraqqiyotida katta o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Брендаль В. Структуральная лингвистика. — В кн.: В.А.Звегинцев. История языкоznания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Н.П. -- М., 1960.
2. Холодович А.А. Курс общей лингвистики Ф.Де Соссюра. — Ф.Де Соссюра. Труды по языкоznанию. — М., 1977.
3. Normatov A. Struktur tilshunoslik:ildizlari va yo'nalishlari. Toshkent: Ta'lim,2009.-260b.
4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. Toshkent:Fan va Texnologiya,2007.-256b.
5. Sayfullayeva R,Mengliyev B,Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M.Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent: Fan va Texnologiya,2009.-416b.